

O'ZBEK MUMTOZ YOZUVCHILAR ASAR NOMLASHIDA IZOFAKING O'RNI

THE ROLE OF IDĀFA IN TITLING THE WORKS OF CLASSICAL UZBEK WRITERS

Temirboyeva Feruzabonu Uyg'bek qizi
O'zDJU Sharq filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Umurzakova Aygul Umarovna
O'zDJU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adiblarining asar nomlashida izofaning o'ziga xos o'rni o'rganilgan. Olib borilgan izlanishlar natijasida, arab tili grammatikasining bir qismi hisoblangan izofadan foydalanishning o'ziga xos yo'llari o'rganib chiqildi. Tadqiqot ishining maqsadi, yozuvchilarning so'z tanlash mahorati hamda arab grammatikasining puxta o'rganilganini ochib berish.

Kalit so'zlar: arab tili, izofa(إضافة), muzofa(مضاف), muzof ilayhi(مضاف إليه), o'zbek mumtoz adabiyoti

Аннотация. В данной статье рассматривается особая роль изофы в наименовании произведений узбекских классических писателей. В результате проведённых исследований были изучены специфические способы использования изофы, являющейся частью грамматики арабского языка. Целью исследования является раскрытие мастерства писателей в выборе слов, а также степени глубокого освоения грамматики арабского языка.

Ключевые слова: арабский язык, изофа(إضافة), музоф(مضاف), музоф илайхи(مضاف إليه), узбекская классическая литература.

Annotation. This article examines the special role of isophae in the titles of works by classical Uzbek writers. The study explored the specific uses of isophae, which is part of Arabic grammar. The aim of the study is to reveal the writers' mastery of word choice, as well as the extent of their profound understanding of the concept.

Keywords: arabic language, izofa(إضافة), muzof(مضاف), muzof ilayhi (مضاف إليه), classical uzbek literature.

Kirish. Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning grammatikasi milodning VIII-IX asrlarda yaratilgan. Shu sababli chuqur va mukammal bo'lib shakllangan.

Moslashmagan aniqlovchi ya'ni izofa arab tilida turli sohalarda keng qo'llaniladigan mavzu hisoblanadi. إضافة (izofa) ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, ular مضاف (muzof) va مضاف إليه (muzof ilayhi)dir. Muzof izofaning aniqlanmishi hisoblanib, har doim moslashmagan aniqlovchi oldidan keladi. Muzof ilayhi bo'lsa, izofaning aniqlovchisidir.

Izofada muzof va muzof ilayhi o'ziga xos munosabatlarga ega. Muzof ال artiklini va tanvin olmaydi, mantiqan aniqlanmish aniqdir. Muzof ilayhi bo'lsa لا artiklini oladi va har doim qaratqich kelishigida turadi. Masalan:

كتاب الطالب – (aniq) talabaning kitobi

حقيبة البنت – qizning sumkasi

Izofani uch kelishikda tushlash uchun muzofning harakatlarini o'zgartirish kifoya. Lekin muzof ilayhi uch kelishikda ham qaratqich bo'lib qolaveradi. Masalan:

كتاب الطالب – talabaning kitobini

كتاب الطالب – talaba kitobining

حقيبة البنت – qizning sumkasini

حقيبة البنت – qiz sumkasining

Shunday qilib izofani qaratqichli aniqlovchiga qiyoslash mumkin. Nutqda ushbu grammatik birikmadan foydalanish fikrni tiniqashtiradi va teranlashtiradi.³⁹

Sarlavha – badiiy asarning ajralmas muhim bo'lagi hisoblanadi. Unda ijodkor matn mazmunini bir so'z yohud bir gapga sig'diradi, aynan shu kichik bo'lakda asar g'oyasi, yozuvchi niyati, obrazlar hayoti qisman bo'lsada ochib beriladi. Ba'zi yozuvchilar aniq maqsad yo'lida sarlavha tanlasalar, ayrimlari asar yozib bo'lgandan so'nggina xulosalash barobarida badiiy asarni nomlashadi.

O'zbek hamda jahon adabiyotida badiiy asarni nomlash dolzarb mavzu hisoblangan. Jahon adiblari sarlavha qo'yishda obraz yoki detallardan foydalansa, o'zbek mumtoz adabiyotida esa ma'no hamda mazmunga tayanib tanlanadi. Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo"si, Shekspirning "Hamlet"i, Gi De Moppasanning "Pyer va Jan" romani, Servantesning "Don Kixot"i, Pushkinning "Kechki oqshom" va shunga o'xshash she'rlari, Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani va boshqa asarlar sarlavhasi misol bo'la oladi. Ularning nom tanlashda o'ziga xos uslublari o'zbek adiblarnikidan farq qiladi.⁴⁰

O'zbek mumtoz adabiyot vakillari arab tili va uning grammatikasini puxta o'rganganliklari tufayli o'z asarlarini nomlashda izofani mohirlik bilan qo'llashgan. O'zbek adabiyoti yirik namoyondasi Alisher Navoiy misolida ko'rsak, adibning deyarli barcha sarlavhalarida izofadan mohirona foydalanish yaqqol ko'zga tashlanadi⁴¹:

Izofali sarlavha	Izofasiz sarlavha
البداية بدايع "Badoyi' ul-bidoya"	Farhod va Shirin
انهايه نواذر "Navodir un-nihoya"	Layli va Majnun
غريب السغار "G'aroyib us-sig'ar"	Sab'ai sayyor
الشباب نواذر "Navodir ush-shabob"	Munshaot
الوسط بدايع "Badoyi' ul-vasat"	Vaqfiya
الكبار فوايد Favoyid ul-kibar	Arba'in
الأبرار خيرات Hayrat ul-abror	Munojot
سدي إسكندر Saddi Iskandariy	
لسان التير Lison ut-tayr	
Majolis un-nafois	
Mahbub ul-qulub	
Xamsat ul-mutahayyirin	

³⁹ Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (66-69-betlar)

⁴⁰ "Jahon adiblari adabiyoti haqida (Ozod Sharafiddinov tarjimalari)" Toshkent. Ma'naviyat. 2010

⁴¹ Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov. Navoiyshunoslik. Toshkent. "Tamaddun". 2018

Nazm ul-javohir	
Nasoyim ul-muhabbat	
Holoti Sayyid Hasan Ardasher	
Holoti Pahlavon Muhammad	
Muhokamat ul-lugʻatayn	
Mezon ul-avzon	
Tarixi anbiyo va hukamo	
Tarixi muluki Ajam	
Siroj ul-muslimin	
Risolai tiyr andoxtan	
Devoni Foni	

Alisher Navoiy nafaqat mohir yozuvchi, balki oʻzidan keyingi adiblar uchun buyuk ustoz hamdir. Bir qancha adiblar Navoiyni ustoz oʻlaroq koʻrib, uning yoʻlidan ketgan, usulidan ilhomlangan. Ulardan biri Muhammadrizo Ogahiydir. Ogahiy asar nomlashda ham izofadan uddaburonlik bilan foydalangan⁴²:

Zubdat ut-tavorix
Taʼviz ul-oshiqin
Firdavs ul-iqbol
Riyo ud-davla
Shohid ul-iqbol
Jamshidi tavoyifi fathi
Gulshani davlat

Bulardan tashqari, Mashrab, Munis (“Firdavs ul-qibol”), Abulgʻoziy Bahodirxon(“Shajarai turk”) va boshqa mumtoz adabiyot vakillarining asarlari sarlavhasida izofani koʻrish mumkin.

Izofali sarlavhalar asar mazmunini toʻliqroq ochib berib, kitobxon eʼtiborini oʻziga jalb qiladi. Izofa orqali yozuvchi xissiyoti, badiiy asar gʻoyasi yorqinroq ifodalanadi. Masalan, Navoiyning “Munshaot” yaʼni “maktublar” nomidan “Nasoyim ul-muhabbat”(“Muhabbat shabadalari”) taʼsirliroq va jilvakordir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (66-69-betlar).
2. “Jahon adiblari adabiyoti haqida(Ozod Sharafiddinov tarjimalari)” Toshkent. Maʼnaviyat. 2010.
3. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. Toshkent. “Tamaddun”. 2018.
4. “Qoʻngʻirot sulolasining tarixnavisligida Muhammadrizo Ogahiyning “Zubdat ut-tavorih” asari” avtoreferati. H.Nazirova. Toshkent. 2022.

⁴² “Qoʻngʻirot sulolasining tarixnavisligida Muhammadrizo Ogahiyning “Zubdat ut-tavorih” asari” avtoreferati. H.Nazirova. Toshkent. 2022